



XALQARO AMALIYOTDA BANK MAHSULOTLARINI JORIY ETISH TAJRIBALARI TAHLILI

PhD **Xujamuratov Abbos**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi

ORCID: 0009-0001-8697-2112

abbosxujamuratov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro amaliyotda bank mahsulotlarini joriy etish tajribalari tahlil qilinadi. AQSH, Kanada, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi va Xitoy bank tizimlari misolida raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va "yashil moliya"ning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekiston bank tizimi uchun ilg'or tajribalarni moslashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: xalqaro tajriba, bank mahsulotlari, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, yashil moliya, innovatsiyalar.

АНАЛИЗ ОПЫТА ВНЕДРЕНИЯ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКЕ

PhD **Хужамуратов Аббос**

Научно-исследовательский центр «Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана» при Ташкентском государственном экономическом университете

Аннотация. В статье анализируется международный опыт внедрения банковских продуктов. На примере банковских систем США, Канады, Японии, Европейского союза и Китая рассматриваются роль цифровых технологий, искусственного интеллекта, автоматизации и «зеленых» финансов. Результаты исследования показывают необходимость адаптации передового опыта для банковской системы Узбекистана.

Ключевые слова: международный опыт, банковские продукты, цифровые технологии, искусственный интеллект, зеленые финансы, инновации.

ANALYSIS OF INTERNATIONAL PRACTICES IN THE IMPLEMENTATION OF BANKING PRODUCTS

PhD **Xujamuratov Abbos**

Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" under Tashkent State University of Economics

Abstract. This article analyzes the international experience of implementing banking products. Using the examples of the USA, Canada, Japan, the European Union, and China, it highlights the importance of digital technologies, artificial intelligence, automation, and green finance. The study emphasizes the need to adapt best practices to the banking system of Uzbekistan.

Keywords: international experience, banking products, digital technologies, artificial intelligence, green finance, innovations.

Kirish.

Globalashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari jadal kechayotgan hozirgi davrda bank tizimi xalqaro moliyaviy bozorning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida o'z faoliyatini kengaytirib bormoqda. Xususan, bank mahsulotlarini ishlab chiqish, joriy etish va takomillashtirish sohasida ilg'or xorijiy tajriba bugungi kunda milliy bank tizimlari uchun o'rganilishi zarur bo'lgan muhim yo'nalishlardan biridir.

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlar banklari mijozlar ehtiyojlarini chuqur tahlil qilgan holda innovatsion yechimlarga asoslangan moliyaviy mahsulotlarni yaratish orqali raqobatbardoshlikni oshirmoqda. Ular faoliyatida sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), raqamli platformalar, bulutli texnologiyalar, biometrik identifikatsiya va narsalar interneti (IoT) kabi ilg'or texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Natijada bank xizmatlari sifati oshib, mijozlar uchun qulay, xavfsiz va tezkor moliyaviy muhit yaratilmoqda.

Bugungi kunda xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, innovatsion bank mahsulotlarini joriy etish nafaqat banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, balki ularning bozordagi mavqeini mustahkamlaydi, mijozlar ishonchini oshiradi va yangi mijozlarni jalb etish imkonini beradi. Shu bois, xorijiy banklarning ilg'or tajribalarini o'rganish va ularni milliy bank tizimida qo'llash O'zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi.

Vagayseva va Shmireva (2023) o'z tadqiqotlarida qo'yidagilarni ta'kidlaydilar, yangi raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va ulardan faol foydalanish kredit tashkilotlarining mijozlar bilan mahsulot va xizmatlarning mavjudligi sohasidagi munosabatlariga ta'sir qiladi. Ayni paytda banklarning mijozlar uchun mahsulotlar yaratish va chiqarish bo'yicha faoliyati ushbu sohadagi texnologiya va innovatsiyalarning rivojlanishi tufayli yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Tepkeeva (2016) mijozlar uchun bank mahsulotlari/xizmatlarining o'zgarishini baholab, shunday xulosaga keladiki, yangi bank xizmatlari va mahsulotlari mijozning psixotipiga e'tibor qaratilib, maqsadli, moslashtirilgan bo'lib bormoqda, bu esa pirovardida yangi, progressiv xizmatlarni joriy qiluvchi banklarning rentabelligini oshirishga olib keladi.

Xafizova (2013) tadqiqotlariga ko'ra, bank mahsuloti (xizmati) – bu banklarning moliya bozoridagi turli xil harakatlari, ular tomonidan pul mablag'lariga bo'lgan talab va taklifga muvofiq amalga oshiriladigan pul operatsiyalari, shuningdek, pul mablag'lariga bo'lgan talab va taklifga muvofiq amalga oshiriladigan pul operatsiyalari, bank tadbirkorligini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, deb hisoblaydi. Bank mahsulotlari o'ziga xos parametrlar to'plamiga ega bo'lgan asosiy texnologiyalardan iboratdir, bularga, valyuta, muddatlar, minimal va maksimal miqdorlar, bank kartasining turilari kiradi. Bundan tashqari, bank mahsulotlari bir-biridan asosiy parametrlari va miqdori bo'yicha farq qilishi mumkin.

Platonova va Xigginsa (2001) olimlarning fikriga ko'ra, bank mahsuloti – bu alohida bank xizmati yoki mijozlarga standart shartlarda taklif qilinadigan bank xizmatlari to'plamidir: kreditlar to'plami, depozitlar, plastik kartalar, pul utkazmalari va boshqalar.

Veretennikova va Shatkovskayalar (2012) tadqiqotlarida quyidagilarni ta'kidlaydilar, ya'ni bank xizmati bank mahsulotining mustaqil turi sifatida ko'ra quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

birinchidan, bu kredit muassasasi balansidagi buxgalteriya hisobvaraqlari orqali pul mablag'larining harakati bilan bog'liq bo'lmagan bank faoliyati turi;

ikkinchidan, u mijozlarga operatsiya yoki tranzaksiya bilan birgalikda ko'rinadi yoki mustaqil mahsulot sifatida ishlaydi:

a) tegishli faoliyat turi sifatida taqdim etiladi, sinergik ta'sir ko'rsatadi hamda bank operatsiyasi yoki bitimi sifatini oshiradi, uni raqobatbardosh qiladi;

b) xizmat ko'rsatish jarayonida iqtisodiy risklarni amalga oshirish natijasida bank uchun moliyaviy yo'qotishlar bilan bog'liq bo'lgan pastroq sifatli toifadagi bank operatsiyasini majburiy o'tkazishga olib keladi;

v) mustaqil mahsulot sifatida faoliyat yuritib, mijozlarning qo'shimcha ehtiyojlarini qondiradi, shu orqali bank mahsulotlari va mijozlar bazasini kengaytiradi.

Velichko (2012) tahliliga ko'ra, zamonaviy dunyoda bank mahsuloti va bank xizmati o'rtasidagi chegaralar tobora kamayib boradi. Bank xizmati mijozning xulq-atvoriga ta'sir qiladi va bank mahsuloti bu ta'sirni amalga oshirishga yordam beradi.

Ternovskiy (2012) olib borilgan ilmiy ishlarida qo'yidagilarni ta'kidlaydilar, Iqtisodiyot va moliya sohasidagi zamonaviy ilmiy-amaliy adabiyotlarda «bank mahsuloti» deganda bank mijozlarining ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan xizmat yoki o'zaro bog'liq xizmatlar majmui tushuniladi.

Kolenov va Gyunterlarning (2023) fikriga ko'ra, yangi bank mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish algoritmlarini quyidagi keng tarqalgan va asosiy bosqichlari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatishadi, ya'ni:

- bank mahsuloti konsepsiyasini ishlab chiqish;
 - bank mahsulotini rasmiylashtirish va tavsiflash;
 - mahsulot marketing tadqiqotlari;
 - innovatsion mahsulot ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va tasdiqlash;
- innovatsion mahsulotni joriy etish

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda xalqaro amaliyotda bank mahsulotlarini joriy etish tajribalari va ularning samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilindi. Xorijiy banklarning innovatsion yondashuvlari, raqamli texnologiyalarni qo'llash tajribasi va muvaffaqiyat omillari qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotda tizimli yondashuv, mantiqiy va qiyosiy tahlil usullari qo'llanilib, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, biometrik identifikatsiya va raqamli platformalarning bank mahsulotlari samaradorligidagi o'rni asoslab berildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar bank tizimida yangi mahsulotlar va xizmat ko'rsatish uchun yangi innovatsiyalarni joriy etib kelmoqda. Jumladan, bank tizimida ilg'or innovatsiyalarni joriy etishda yetakchi amaliyotga ega mamlakatlar sifatida Amerika qo'shma shtatlari va Kanadani qayd etish mumkin. Bu mamlakatlarda raqamli bank xizmatlari, xususan mobil bank va onlayn bank xizmatlari keng tarqalganligi bilan alohida ajralib turadi (1-jadval).

1-jadvalda AQSH va Kanadadagi bank xizmatlarining rivojlanish dinamikasi keltirilgan bo'lib unda mobil va onlayn bank foydalanuvchilari, elektron to'lovlar, avtomatlashtirish va AI texnologiyalari, yashil kreditlar va ulardan foydalanish ko'rsatkichlari haqida ma'lumotlar tahlil qilingan. Unga ko'ra, AQSHda mobil bank foydalanuvchilari soni 2019-yildan 2023-yilgacha o'sish dinamikasini namoyon etgan. Xususan, 2019-yilda mobil bank foydalanuvchilari ulushi 70% bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib mazkur ko'rsatkich 90%ga yetgan. Mazkur holat AQSHda raqamli bank xizmatlariga talabning keskin o'sganini ko'rsatadi.

Shuningdek, AQSHda onlayn bank foydalanuvchilari soni ham oshgan. Onlayn bank foydalanuvchilari soni 2019-yilda 150 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich 2023-yilga kelib 190 mln. kishiga yetgan. Bu raqamlar, internet va mobil bank xizmatlarining keng tarqalganligini hamda moliyaviy texnologiyalarni rivojlanganligidan dalolat beradi.

1-jadval

AQSH va Kanada bank tizimining tadqiqot doirasidagi ko'rsatkichlari tahlili

Mamlakat	Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
AQSH	Mobil bank foydalanuvchilari (<i>jamiga nisbatan</i>)	70%	75%	80%	85%	90%
	Onlayn bank foydalanuvchilari (<i>mln. kishi</i>)	150	160	170	180	190
	Elektron to'lovlar hajmi (<i>trln. dollarda</i>)	0,5	0,7	0,85	1,0	1,2
	Avtomatlashtirish va AI texnologiyalari (<i>foizlarda</i>)	25%	35%	40%	45%	60%
	Yashil kreditlar hajmi (<i>mlrd. dollarda</i>)	0,01	0,02	0,03	0,04	0,06
	Yashil kreditlardan foydalanish (<i>umumiy aholiga nisbatan</i>)	25%	30%	33%	35%	40%
Kanada	Mobil bank foydalanuvchilari	80%	82%	85%	70%	75%
	Onlayn bank foydalanuvchilari (<i>mln. kishi</i>)	25	30	35	38	40
	Elektron to'lovlar hajmi (<i>trln. dollarda</i>)	0,50	0,60	0,70	0,89	\$94
	Avtomatlashtirish va AI texnologiyalari (<i>foizlarda</i>)	-	30%	35%	40%	58%
	Yashil kreditlar hajmi (<i>mlrd. dollarda</i>)	0,05	0,10	0,10	0,15	0,25
	Yashil kreditlar bo'yicha foydalanish (<i>umumiy aholiga nisbatan</i>)	15%	20%	25%	30%	45%

Manba: <https://www.federalreserve.gov>, <https://www.bankofcanada.ca>, <https://www.statista.com>, <https://www.imf.org>, <https://www.worldbank.org> sayt ma'lumotlari va yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Jadval ma'lumotlarining ko'rsatishicha, AQSHda elektron to'lovlar hajmida keskin o'zgarishlar sodir bo'lgan. Jumladan, bu ko'rsatkich 2019-yilda 0,5 trln. dollardan boshlanib, 2023-yilda 1,2 trln. dollarga yetgan. Ushbu raqamlar mamlakatda elektron to'lovlar tizimining yetarlicha ommalashganligiga ishora qiladi. Avtomatlashtirish va AI texnologiyalarini bank tizimiga qo'llanilishi esa, 2020-yildan boshlab sezilarli oshgan. Bunga bir tarafdin 2019-yilda yuz bergan COVID-2019 pandemiyasi ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatgan. Shundan kelib chiqqan holda, bank tizimida avtomatlashtirish va AI texnologiyalari ulushi 2020-yilda 25%ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 60%ga yetgan. Bu esa, mamlakatda banklarning raqamli transformatsiyasiga va sun'iy intellektga bo'lgan katta e'tiborni ko'rsatadi.

Fikrimizcha, bank mahsulotlari mavzusini tadqiq etishda so'nggi yillarda jahon bank tizimida yuz berayotgan tendensiyalarni tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega. Bunday tendensiyalarga biz yashil bank mahsulotlarini keltirib o'tishimiz mumkin bo'ladi.

Shundan kelib chiqqan holda, qayd etish mumkinki, AQSHda yashil kreditlar hajmi 2019-yildan 2023-yilgacha yashil kreditlar hajmi 0,01 mlrd. dollardan 0,06 mlrd. dollargacha oshgan. Bu global iqlim o'zgarishi sharoitida yashil iqtisodiyotga bo'lgan ehtiyojning ortishiga ishora qiladi.

Hozirgi kunda yashil mahsulotlardan foydalanish hajmi aholi orasida keskin oshib bormoqda, bunga yashil mahsulotlarga qo'yiladigan talablar va kreditlash shartlarining yumshatilishi ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur holatlar yashil moliyaviy mahsulotlarga bo'lgan ishonchning oshgani va ushbu mahsulotlarga ko'proq talabning shakllanayotganligini ko'rsatadi.

Xulosa qilganimizda, AQSH banklarida raqamli moliya xizmatlari, mobilbanking, AI texnologiyalari va yashil kreditlar tez rivojlanmoqda. Bu esa, mamlakatda moliyaviy texnologiyalar tizimining jadal rivoji va yashil moliyaga bo'lgan ahamiyatning ortib borayotganligidan dalolat beradi.

Bu kabi o'zgarishlarni Kanada bank tizimida ham ko'rishimiz mumkin bo'ladi, jumladan, mobil bank foydalanuvchilari ulushi 2020-yildan boshlab kamaygan (82% dan 70% ga). Bu o'rtacha foydalanishning kamayishini ko'rsatadi. Kanadada onlayn bank foydalanuvchilari soni har yili ortib bormoqda. 2023-yilda bu ko'rsatkich 40 mln. kishini tashkil etib, o'tgan yilga

nisbat 105%ga o'sgan. Bu Kanadadagi moliya xizmatlarining raqamlashtirilishini va internetbankinga bo'lgan ishonchni ko'rsatadi. Elektron to'lovlar hajmi ham 2020-yildan 2023-yilgacha keskin oshgan (0,6 trln. dollardan 0,94 trln. dollarga). Bu raqamlar Kanadada raqamli to'lovlar tizimiga bo'lgan talabning oshgani va elektron to'lovlarning ommalashganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, Kanadada bank tizimiga ilg'or raqamli va moliyaviy texnologiyalarning keng qo'llanilishi asta-sekinlik bilan oshib bormoqda. 2020-yilda mazkur ko'rsatkichning ulushi 30% bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 58%ga yetgan. Yashil kreditlar hajmi esa 2020 yildan 2023 yilgacha yashil kreditlar hajmi oshgan (0,05 mlrd. dollardan 0,25 mlrd. dollargacha o'sgan). Aholi orasida yashil kreditlardan foydalanish ko'rsatkichi 2020-yildan 2023-yilgacha asta-sekinlik bilan oshib borgan va ularning ulushi 15% dan 45%gacha oshgan. Bu holat yashil kreditlarga bo'lgan ishonch va ularga bo'lgan talabning o'sganini ko'rsatadi.

Tahlillarga ko'ra, Kanadada raqamli to'lovlar va mobil banking tizimi rivojlangan, ammo yashil kreditlar va avtomatlashtirishga bo'lgan qiziqish AQSHga nisbatan kamroq. Ammo, 2023-yilda yashil kredit mahsulotlaridan foydalanish ko'rsatkichi tez o'sgan.

2-jadval

Yaponiya, Yevropa ittifoqi va Xitoy bank tizimining tadqiqot doirasidagi ko'rsatkichlari tahlili

Mamlakat	Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
Yaponiya	Mobil bank foydalanuvchilari (<i>jamiga nisbatan</i>)	50%	55%	60%	65%	70%
	Onlayn bank foydalanuvchilari (<i>mln. kishi</i>)	70	80	90	100	110
	Elektron to'lovlar hajmi (<i>trln. dollarda</i>)	0,3	0,4	0,5	0,6	0,7
	Avtomatlashtirish va AI texnologiyalari (<i>foizlarda</i>)	15%	20%	30%	35%	45%
	Yashil kreditlar hajmi (<i>mlrd. dollarda</i>)	0,005	0,01	0,02	0,03	0,05
	Yashil kreditlar bo'yicha foydalanish (<i>umumiy aholiga nisbatan</i>)	10%	15%	20%	25%	30%
Yevropa Ittifoqi	Mobil bank foydalanuvchilari (<i>jamiga nisbatan</i>)	65%	70%	75%	80%	85%
	Onlayn bank foydalanuvchilari (<i>mln. kishi</i>)	300	350	400	450	500
	Elektron to'lovlar hajmi (<i>trln. dollarda</i>)	2,5	3,0	3,5	4,0	4,5
	Avtomatlashtirish va AI texnologiyalari (<i>foizlarda</i>)	40%	45%	50%	55%	60%
	Yashil kreditlar hajmi (<i>mlrd. dollarda</i>)	0,1	0,15	0,2	0,3	0,4
	Yashil kreditlar bo'yicha foydalanish (<i>umumiy aholiga nisbatan</i>)	30%	35%	40%	45%	50%
Xitoy	Mobil bank foydalanuvchilari (<i>jamiga nisbatan</i>)	80%	85%	90%	95%	98%
	Onlayn bank foydalanuvchilari (<i>mln. kishi</i>)	600	650	700	750	800
	Elektron to'lovlar hajmi (<i>trln. dollarda</i>)	20,0	25,0	30,0	35,0	40,0
	Avtomatlashtirish va AI texnologiyalari (<i>foizlarda</i>)	50%	55%	60%	65%	70%
	Yashil kreditlar hajmi (<i>mlrd. dollarda</i>)	0,5	1,0	1,5	2,0	2,5
	Yashil kreditlar bo'yicha foydalanish (<i>umumiy aholiga nisbatan</i>)	35%	40%	45%	50%	55%

Manba: <https://www.statista.com>, <https://www.imf.org>, <https://www.worldbank.org>, <https://www.ecb.europa.eu>, <http://www.cbrc.gov.cn>, sayt ma'lumotlari va yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2-jadvalda boshqa rivojlangan mamlakatlarning bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha statistik tahliliy ma'lumotlari keltirib o'tilgan bo'lib unga ko'ra, Yaponiyada mobil bank foydalanuvchilarining soni katta sur'atda o'sib bormoqda. Bu raqamlar Yaponiyadagi yuqori texnologiyalarni keng qo'llash va raqamli transformatsiyaga bo'lgan e'tiborni ko'rsatadi. 2023-yilda mobil bank foydalanuvchilari ulushi 70%ga yetgan.

Yevropa Ittifoqida onlayn bank foydalanuvchilari soni 2023-yilda 500 mln. kishini tashkil etgan, bu esa global raqamli bankning eng yirik bozorlaridan biri ekanini ko'rsatadi.

Xitoyda onlayn bank foydalanuvchilarining soni 800 mln. kishini tashkil etib, bu jahondagi eng katta onlayn bank tizimlaridan ekanligini yaqqol namoyon etmoqda.

Tahlil ma'lumotlarga ko'ra, Yaponiyada 2023-yilda 45% banklar avtomatlashtirishga o'tganligi, mamlakat bank tizimini raqamlashtirish, ya'ni unga raqamli hamda moliyaviy texnologiyalarni qo'llashda ijobiy o'zgarishlar yuz berganligini tasdiqlaydi.

Yevropa Ittifoqida raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish darajasi 2023-yilda 60%ga yetgan, bu ittifoq tarkibiga kiruvchi mamlakatlarda bank tizimining raqamli rivojlanishga o'tganligini va innovatsion texnologiyalarga jiddiy ishonch bilan qarayotganligini namoyon etmoqda. Xitoyda 2023-yilda raqamli va avtomatlashtirish darajasi 70%ga yetgan, bu esa mamlakatning raqamli bank tizimlarini modernizatsiyalash va innovatsiyalarni qabul qilishda jadal rivojlanayotganligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda bank mahsulotlarini joriy etishda innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va mijozlar ehtiyojini chuqur tahlil qilish asosiy ustuvor yo'nalish hisoblanadi. AQSH, Kanada, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi va Xitoy tajribalari shuni isbotlaydiki, bank tizimining raqamli transformatsiyasi nafaqat xizmatlar sifati va tezkorligini oshiradi, balki mijozlar ishonchini mustahkamlaydi, xarajatlarni kamaytiradi va banklarning raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Xalqaro tajribadan kelib chiqib, O'zbekiston tijorat banklari uchun quyidagi yo'nalishlarda islohotlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- Raqamli bank xizmatlarini kengaytirish – mobil banking, onlayn banking va raqamli to'lov tizimlarini yanada ommalashtirish orqali moliyaviy xizmatlardan foydalanishni soddalashtirish;

- Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarini joriy etish – mijozlar xatti-harakatlarini tahlil qilish, kredit risklarini baholash va xizmatlarni shaxsiylashtirishda qo'llash;

- "Yashil moliya" konsepsiyasini rivojlantirish – ekologik barqaror loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan bank mahsulotlarini ishlab chiqish;

- Katta ma'lumotlar (Big Data) va bulutli texnologiyalardan foydalanish – bank operatsiyalarini optimallashtirish va strategik qarorlarni ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilish;

- Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish – ilg'or tajribalarni o'zlashtirish va innovatsion loyihalarni amalga oshirishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro amaliyotda bank mahsulotlarini joriy etish tajribalari O'zbekiston bank tizimi uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu tajribalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali milliy bank tizimida mijozlarga yo'naltirilgan, innovatsion va barqaror moliyaviy muhitni shakllantirish mumkin.

Xulosa va takliflar.

Xalqaro amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy bank mahsulotlarini muvaffaqiyatli joriy etish jarayonida innovatsion texnologiyalar, raqamli transformatsiya va mijozlar ehtiyojiga yo'naltirilgan yondashuv muhim o'rin tutadi. AQSH, Kanada, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi va Xitoy kabi mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, mobil va onlayn bank xizmatlarini kengaytirish, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, katta ma'lumotlar (Big Data) va "yashil moliya" kabi ilg'or texnologiyalarni qo'llash bank tizimining samaradorligini oshiradi, mijozlar ishonchini mustahkamlaydi hamda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi.

Mazkur tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston bank tizimi uchun xorijiy tajribalarni milliy sharoitga moslashtirgan holda joriy etish zarur. Bunda, birinchidan, raqamli xizmatlarni rivojlantirish va ularni keng ommaga yetkazish; ikkinchidan, innovatsion mahsulotlar — mobil ilovalar, raqamli to'lov platformalari va ekologik loyihalarni moliyalashtiruvchi "yashil kreditlar"ni rivojlantirish muhimdir. Uchinchidan, xalqaro tajribaga tayangan holda mijozlar bilan ishlash strategiyalarini takomillashtirish, shaffoflikni ta'minlash va xizmat sifatini oshirish bank tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro amaliyotda to'plangan ilg'or tajribalar milliy bank tizimining raqamli va innovatsion rivojlanishida yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tajribalarni bosqichma-bosqich tatbiq etish O'zbekiston bank tizimining raqobatbardoshligini oshiradi, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi va mijozlar ehtiyojlariga yanada samarali javob beruvchi bank mahsulotlarini yaratishga zamin yarat

Adabiyotlar /Literatura / Reference:

Вагайцева В.П., Шмырева А.И. (2023). Современные банковские продукты: анализ тенденций развития в России и за рубежом // Идеи и идеалы. – Т. 15, № 2, ч. 2. – С. 261–276. – DOI: 10.17212/2075-0862-2023-15.2.2-261-276.

Тепкеева Т.С. (2016) Современные тенденции развития новых банковских продуктов и услуг для физических лиц. Вестник МФЮА №3. 54-61 стр.

Хафизова П.А. (2013). Банковские продукты (услуги): содержание и принципы размещения / П.А. Хафизова // Вестник Таджикского государственного университета права, бизнеса и политики. Серия гуманитарных наук. – №1. – С. 89-99

Платонова В., Хиггинса М. (2001) Банковское дело: стратегическое руководство / под ред. В. Платонова, М. Хиггинса. 2-е изд. – М.: Консалбанкир, 2001. – 432 с

Веретенникова О.Б., Шатковская Е.Г. (2012) Банковские продукты: сущность и характеристика. Известия УрГЭУ 1(39), 41-46 стр.

Величко С.С. (2012) Банковские услуги: экономическое содержание и проблемы предоставления // Банковское дело. № 3.

Терновский Д.Н. (2012) Инновационные банковские продукты в кредитовании малого и среднего бизнеса. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Йошкар-Ола – 2012. 20 стр.

Коленов А.Н., Гюнтер И.Н. (2023) Тенденции внедрения инновационных продуктов в современный банковский сектор России // Региональная и отраслевая экономика. – № 2 – С. 86–92. doi: 10.47576/2949-1916_2023_2_86.